

**TAKRORIY SABZAVOT EKINLARIDA QO‘LLANILGAN MINERAL VA
NOAN‘ANAVIY ORGANOMINERAL QO‘SHIMCHA OZIQLARNING
SAMARADORLIGI OSHIRISH YO‘LLARI.**

Normuratov Oybek Ulug‘berdiyevich

*Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va tuproqshunoslik
kafedrasi dotsenti., qishloq xo‘jaligi fanlari doktori.*

Abdullayeva Madina Abduxakimovna

*Termiz davlat universiteti Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasi Tuproqshunoslik
ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi.*

Annotatsiya: Surxondaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug‘doydan bo‘shagan maydonga takroriy sabzavot ekinlarida qo‘llaniladigan turli me‘yordagi mineral va noan‘anaviy qo‘shimcha organomineral oziqlarni g‘o‘zani o‘sishi rivojlanishi, hosildorligi va paxta hosilining texnologik sifat ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganishdan iborat deb yoritib berilgan.

Аннотация. В условиях светлых сероземов Сурхандарьинской области освещено влияние минеральных и нетрадиционных дополнительных органо-минеральных удобрений, применяемых в повторных посевах овощей на поле, освобожденном от озимой пшеницы, как исследование влияния на развитие роста, продуктивности и урожайности хлопчатника. технологические показатели качества сбора хлопка.

Annotation: In the conditions of light gray soils of the Surkhandarya region, the effect of mineral and non-traditional additional organo-mineral fertilizers used in re-sowing vegetables on a field freed from winter wheat is highlighted as a study of the impact on the development of growth, productivity and yield of cotton. technological indicators of the quality of cotton harvesting.

Mavzuning dolzarbligi: Butun dunyo bo‘yicha 5,0 mln tonna atrofida pomidor hosili terib olinadi. Jumladan; AQSh 6,1-6,3 mln tonna MDH 4,7-4,8 mln tonna, Xitoy 4,1-4,2 mln tonna, Italiya 4,0-4,1 mln tonna, Turkiya 3,5-3,7 mln tonna, Misr 2,6-2,8 mln tonna, Ispaniya 2,1-2,3 mln tonna pomidor yetishtiradi. Yer yuzida eng ko‘p pomidor yetishtiruvchi davlatlar hisoblanadi. Sobiq Itfoq davlatlarida uning ekin maydoni 2,5 mln gektarni umumiy maydoni esa sabzavot ekinlari maydonining 24% ni tashkil qilib, umuniy sabzavot hosilining 27,4% ini tashkil etadi. Eng katta pomidor maydonlari Ukraina hamda Rossiyaning janubiga (35-36% dan), Moldaviyaga (8,4%), O‘zbekistonga (6,5) hamda Ozorboyjonga (5%) to‘g‘ri keladi.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida Surxondaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida, takroriy sabzavot ekini pomidorning “Surxon-142”, ukropning “Orom” va o‘rta tolali g‘o‘zaning “Sulton” navlari hamda mineral o‘g‘itlardan: Ammiakli selitra (N 34%),

Oddiy superfosfat (R 18%), Kaliy xlorid (60%), bentonit va yarim chirigan go'ng hamda shular asosida 1:0,4 nisbatda tayyorlangan organomineral kompost tanlangan.

Tadqiqot uslublari. Izlanishlar dala tajribasi o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tajribalarni o'tkazish, fenologik kuzatuvlar, tuproq va o'simlik namunalarini olish va tahlil qilish “Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в полевых хлопковых районах” (1963) asosida, O'zPITining (1981) uslubiy qo'llanmasiga muvofiq amalga oshirildi [1.7; 439-s]. Shuningdek tadqiqotlar va kimyoviy analizlar “Dala tajribalarini o'tkazish uslublari” (Toshkent, 2007) [1.4; 145-6], “Агрохимические методы исследования почв, растений и удобрений” [1.6; 347 с], “Методика полевых опытов” Б.А. Доспехов [1.5; 255-с]. қўлланмалари асосида ўрганилди ва таҳлил қилинди. Тупроқдаги умумий азот, фосфор, калий (СоюзНИХИ, 1963) И.М.Мальцева ва П.Н.Гриценко, гумус миқдори И.В.Тюрин, нитратли азот Грандвал Ляжу, harakatchan fosfor, В.Р.Мачигин, almashinuvchi kaliy miqdori V.P.Protasov, usullarida aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Surxondaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doydan bo'shagan maydonga takroriy sabzavot ekinlarida qo'llaniladigan turli me'yordagi mineral va noan'anaviy qo'shimcha organomineral oziqalarni g'o'zani o'sishi rivojlanishi, hosildorligi va paxta hosilining texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surxon-Sherobod vohasida tarqalgan sug'oriladigan taqirli-o'tloqi tuproqlar sharoitida pomidordan yuqori hosil yetishtirishda azotli o'g'itlarning me'yorini aniqlash va biologik preparatning ta'siri bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Surxon-Sherobod vohasi sug'oriladigan taqirli-o'tloqi tuproq sharoitida erta bahorgi muddatda pomidorning Surxon-142 navi urug'iga biologik preparat bilan ishlov berib, $N_{300}P_{120}K_{100}$ mineral o'g'itlarning maqbul me'yorlari Bandixon tumani «Vaqt va imkoniyat» fermer xo'jaligining 0,5 gektar maydoniga joriy qilingan.

Natijada, pomidorni an'anaviy usulda yetishtirilganga nisbatan 5-8 kun erta hosil olingan, 45 foizgacha begona o'tlar bilan zararlanishining oldi olingan, hosildorlik 2,5-3,0 t/ga yuqori bo'lgan, rentabellik darajasi 40,3 foizni tashkil etishiga erishilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Pomidor o'simligi tomonidan oziqa moddalarning o'zlashtirilishi quruq modda to'planishi bilan bog'liq bo'lib, gullash davrida o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantida bir tup o'simlikning quruq vazni 34,5 grammni tashkil qildi. Amal davri oxirida 75,4 grammga teng bo'lib, o'simlik qismlari tarkibida, ya'ni barglarda 24,7 gr, poyada 20,8 gr va hosilda 29,9 grammni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich azotli mineral o'g'itlar me'yori 200 va 300 kg/ga+Fon qo'llanilgan variantlarda gullash davrida o'simlikning quruq massasi 43,7–43,8 gr ni, meva tugish davrida 53,7–54,8 gr ni tashkil qilib, nazoratga nisbatan muddatlarga mos ravishida 9,0–9,3 gr va 11,3–12,4 grammga yuqori bo'ldi. Pomidorga turli me'yorlarda mineral o'g'itlarni qo'llash, tuproq tarkibidagi nitrat va ammoniy shakldagi azot miqdoriga ijobiy ta'sir ko'rsatdi va o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan mineral o'g'itlarni $N_{300}R_{120}K_{100}$ kg/ga qo'llanganda o'rganilgan

20-Iyun, 2026-yil

sugʻoriladigan tuproqlarning haydov qatlamlari tarkibida ammoniy shakldagi azot 22,8 mg/kg ga, nitrat shaklidagi azot 16,6 mg/kg ga ortdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Zuev V.I., Abdullaev A.G. Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 1997. –B. 120-121.
2. Normuratov O.U., Choriev A.K. Taqir oʻtloqi tuproqlarda fosforli va murakkab fosforli oʻgʻitlarning yutilish jarayonlari. // Iqlim oʻzgarishi sharoitida yer resurslarini barqaror boshqarish Respublika ilmiy-amaliy seminar maqolalar toʻplami. - Toshkent, 2017. 21 aprel. – B. 275-277.
3. Dusmuratova S.I. Oʻzbekistonda pomidor mevalari va urugʻlarini yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish. k.x.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2014. 48-b.

Global
Science
Publication